



IZOHLI LUG‘ATLARDA BERILGAN ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING TADQIQI

Xudoyberdiyeva Maxbuba Murodovna

Qarshi davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi
xudoyberdiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek terminologiyasida olib borilgan tadqiqot ishlari, ularda o‘zbek tilshunosligining sohaga oid terminlarning leksikografik xususiyatlari, xususan, adabiyotshunoslik terminlari tadqiqi xususida so‘z boradi. Soha terminlarini zamon talabiga mos ravishda shakllantirish, ularni ma‘lum me‘yoriy tartibga keltirish terminologiyaning asosiy maqsadi ekanligi va bu borada adabiyotshunoslik sohasiga oid terminlarning shakllanishi va taraqqiy etishida yuzaga kelgan muammolar va ularning yechimi xususida to‘xtalib o‘tiladi.

Tayanch so‘zlar: terminologiya, terminlarning leksikografik tasnifi, izohli lug‘at, adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati, lug‘at tuzilishi, soha terminologiyasi, soha terminologiyasi tadqiqi, soha terminologiyasi taraqqiyoti.

Аннотация: В статье говорится об исследовательской работе, проводимой в области узбекской терминологии, лексикографических особенностях терминов, относящихся к области узбекского языкознания, в частности, изучению литературных терминов. Основная цель терминологии – сформировать термины области в соответствии с требованиями времени, привести их в определенный нормативный порядок, и в связи с этим проблемы, возникшие при формировании и развитии терминов, связанных с обсуждалась область литературоведения и пути их решения.

Ключевые слова: терминология, лексикографическая классификация терминов, аннотированный словарь, словарь литературных терминов, структура словаря, отраслевая терминология, исследование отраслевой терминологии, разработка отраслевой терминологии.

Annotation: The article talks about the research work carried out in Uzbek terminology, the lexicographic features of terms related to the field of Uzbek linguistics, in particular, the study of literary terms. The main goal of terminology is to form the terms of the field in accordance with the requirements of the times, to bring them into a certain normative order, and in this regard, the problems that arose in the formation and development of terms related to the field of literary studies and their solutions were discussed.

Key words: terminology, lexicographic classification of terms, annotated dictionary, dictionary of literary terms, vocabulary structure, field terminology, research of field terminology, development of field terminology.

Jamiyat taraqqiyoti negizida rivoj topadigan har qanday tilning bor bo‘y-bastini namoyon etuvchi izohli lug‘atlar o‘sha til uchun asosiy manba hisoblanadi. Izohli lug‘atlar yaratilgan davrda keng iste‘molda bo‘lgan so‘z boyligini ko‘rsatib berishi bilan qimmatlidir. Shu o‘rinda prof. H. Dadaboyev: “Har qanday tilning so‘z boyligi u tarixiy yoki zamonaviy tusda bo‘lmasin, insonlar tomonidan tuziladigan rang-barang lug‘atlarda ma‘lum darajada aksini topadi. Lug‘at til so‘z boyligini o‘zida saqlovchi akkumulyator vazifasini bajaradi. Bugun muayyan tilshunoslikning qay darajada rivojlangani, takomil topgani ayni tilda yaratilgan lug‘atlarning turi,



miqdori va sifati bilan o'lganmoqda" [1], - deb ta'kidlaganda ana shu maqsad nazarda tutilganligi ko'rinadi.

Har bir davrda zamon talabiga mos lug'atlarning yaratilishi mashaqqatli mehnatni talab qilgan. O'zbek tilining izohli lug'atlari ham ana shunday uzoq yillik mashaqqatli va mas'uliyatli mehnat mahsuli sifatida yaratildi. "Ikki jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" yuzaga kelgandan buyon o'tgan vaqt mobaynida o'zbek tili leksikasida yuz bergan o'zgarishlar e'tiborga olinsa, allaqachon ana shunday lug'atning yangisini yaratish vaqti kelganligi va bu ish dolzarb vazifalardan biri ekanligi o'z-o'zidan ayon bo'ladi." [2].

Bir guruh tilshunos olimlar ushbu dolzarb vazifaga mas'uliyat bilan yondashgan holda o'zbek tilining shu paytgacha yaratilgan izohli lugatlariga(1981, 2006-2008, 2020) tayanib, "Ozbek tilining izohli lug'ati"ning yangi 6 jildli nashrini yaratishga muvaffaq bo'lishdi. Jamiyat rivoji natijasida turli sohalarga yangi lug'aviy birliklarning kirib kelishi yoki ba'zilarining iste'moldan chiqishi tabiiy holdir. Shu o'rinda tadqiq etilayotgan adabiyotshunoslik terminlarining turli davrlarda yaratilgan izohli lug'atlarda berilishi o'rganilib, statistik jihatdan tahlil qilindi.

"O'zbek tilining izohli lug'at"larida mavjud adabiyotshunoslik terminlarini tasniflashda statistik tadqiqot metodidan foydalangan holda terminlarni o'zaro solishtirishning bir necha parametrlarini belgilandi. Shunga ko'ra "O'zbek tilining izohli lug'at"larida mavjud adabiyotshunoslik terminlarini semantik, morfologik, struktur mezonlari statistik jihatdan tavsiflandi. Tahlil natijasida ularning "O'zbek tilining izohli lug'at"laridagi (1981, 2006-2008, 2020, 2023) umumiy sonidan kelib chiqqan holda o'z qatlam va o'zlashma qatlamga oid terminlar, adabiyotshunoslik terminlarining struktur tasnifi, ba'zi adabiyotshunoslik terminlarining boshqa sohalarda ham soha termini sifatida parallel qo'llanilishi kabi bir qator xususiyatlariga oydinlik kiritildi.

Dastlab adabiyotshunoslik terminlarining umumiy sonini berishda sohada foydalanib kelinayotgan H.Homidiy, Sh.Abdullayev, S.Ibrohimova "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati" (Toshkent: O'qituvchi, 1967) va D. Quronov, Z. Mamajonova, M. Sheraliyeva "Adabiyotshunoslik lug'ati" (Toshkent: Akademnashr, 2013)laridagi terminlar miqdoridan kelib chiqildi. Bunga ko'ra 1-lug'atda (H. Homidiy, Sh.Abdullayev, S.Ibrohimova "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati" (Toshkent: O'qituvchi, 1967)) 536 ta, 2-lug'atda (D. Quronov, Z. Mamajonova, M. Sheraliyeva "Adabiyotshunoslik lug'ati" (Toshkent: Akademnashr, 2013)) 550ta adabiyotshunoslik terminlari berilganligi aniqlandi. Tasniflashning keyingi bosqichlarida ana shu terminlarning "O'zbek tili izohli



lug‘at” larida (1981, 2006-2008, 2020, 2023) berilishi va izohlanishiga e‘tibor qaratildi.

Statistik metod orqali sohada qo‘llanilib kelinayotgan adabiyotshunoslik terminlari “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *ad.* pometasi bilan keltirilgan. Ularning berilishi izohli lug‘atlarning turli nashrlarida miqdor jihatdan turlicha berilishidan tashqari ba’zi tafovutli holatlar kuzatildi. Buni bir nechta terminlar misolida ko‘rib o‘tish o‘rinli bo‘ladi. Masalan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”(1981)da *kinoya, lirika, litota, metrik, munojot, musamman, oda, oktava, parallelizm, parema(paremiya), poema, poetika, proza, poeziya, realizm, remarka, tragediya* kabi bir qator adabiyotshunoslik terminlari *ad.*pometasi bilan berilmagan. Izohli lug‘atning keyingi nashrlarida esa 1- nashrda *ad.* pometasi bilan berilgan *metonimik, mushoira, navoiyshunos, navoiyshunoslik, povest, saj, siymo, to‘qilma(to‘qima), xamsa* terminlarning umuman berilmaganligini ko‘rish mumkin. E‘tiborlisi shundaki, tasniflash jarayonida ba’zi terminlar nafaqat adabiyotshunoslik sohasida, balki boshqa sohalarda ham soha termini sifatida parallel qo‘llanilishi kuzatildi.

| 2 jildli O‘TIL | 5 jildli O‘TIL | 6 jildli O‘TIL |
|----------------------------------------|----------------------------------------|----------------------------------------|
| Antetiza – falsafa, mantiqsunoslik | Antetiza – falsafa, mantiqsunoslik | Antetiza – falsafa, mantiqsunoslik |
| Barmoq – texnika | Barmoq - texnika | Barmoq - texnika |
| Beshlik – tarix | Beshlik – tarix | Beshlik – tarix |
| Giperbolik – matematika | Giperbolik – matematika | Giperbolik– matematika |
| Oda-musiq | Oda-musiq | Oda-musiq |
| Parallelizm – matematika, tilshunoslik | Parallelizm – matematika, tilshunoslik | Parallelizm – matematika, tilshunoslik |
| Poema- musiq | Poema- musiq | Poema- musiq |
| Remarka- san‘at | Remarka- san‘at | Remarka- san‘at |
| Realizm- falsafa | Realizm- falsafa | Realizm- falsafa |
| Sinekdoxa- tilshunoslik | Sinekdoxa- tilshunoslik | Sinekdoxa- tilshunoslik |
| Trilogiya- musiq | Trilogiya- musiq | Trilogiya- musiq |
| To‘qilma(to‘qima) – biologiya | To‘qima-maxsus termin, biologiya | To‘qima-maxsus termin, biologiya |

Jadvalda keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, terminologiyada ba’zi terminlar o‘zining izohlash chegarasidan kelib chiqqan holda turli soha tushunchalarini ifodalovchi terminlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotshunoslikka oid terminlarni statistik tasniflash shuni ko‘rsatdikki, ba’zi terminlar sohada odatda parallel ravishda qo‘llaniladi. Quyida izohli



lugʻatlarning turli nashrlarda keltirilgan shu kabi terminlarni mazmunan oʻzaro bir – biriga tengligini misollarda koʻrib oʻtamiz:

Nasr – proza, giperbola – mubolagʻa, giperbolik – mubolagʻali, poema – sheʻriy asar, nazm – sheʻriyat – poeziya, epitet – sifatlash, antologiya – tazkira – memuar, komediya – hajviyot, personaj – qahramon, epizod – parcha, povest – qissa, istiora – majoz, metafora.

Adabiyotshunoslik terminlarini morfologik jihatdan tasnif qilganimizda terminlarning ot, sifat feʻl soʻz turkumiga oid turlarini koʻrishimiz mumkin. Terminlarni morfologik tasniflashda ot soʻz turkumiga oid terminlarning yetakchlik qilishiga guvoh boʻldik.

Y.B. Borev oʻzining “Эстетика. Теория литературы / Энциклопедический словарь терминов” (“Estetika. Adabiyot nazariyasi. Terminlarning ensiklopedik lugʻati”) asarining soʻzboshisida: “Без системы терминов никакая наука существовать не может”, - дея қайд этган эди. Маʼlum boʻladiki, terminlar sistemasiga ega boʻlmagan fan sohasi boʻlishi mumkin emas.[3] Shunday ekan, jamiyat rivoji natijasida turli sohalar leksikasida baʼzi terminlarning isteʼmoldan chiqishi, yangi birliklarning kirib kelish jarayoni shu soha terminologiyasida namoyon boʻladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Oʻzbek tilining izohli lugʻat”larida mavjud adabiyotshunoslik terminlarini statistik jihatdan tavsiflash terminlardagi mavjud kamchilik va muammolar yechimini ishlab chiqish zarurligini koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Dadaboyev H.A. Oʻzbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019.
2. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 2 tomli. 1-2-tomlar. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 1981.
3. Боров Ю.Б. Эстетика. Теория литературы / Энциклопедический словарь терминов. – М.: Астрель, 2003.
4. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 5 jildli. 1-5-jildlar. – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.
5. Homidiy H., Abdullayev Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lugʻati. – Toshkent.: Oʻqituvchi, 1967.
6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lugʻati. – Toshkent.:, 2013.
7. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 6 jildli. 1-6-jildlar. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.